

ABDUMAJIDOV G'AFUR ABDUMAJIDOVICHNING- YURIDIK SOHADA TUTGAN O'RNI

Haqnazarova Gulsanam Zohidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20458731>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston huquqshunoslik maktabining taniqli namoyandasi, professor G'afur Abdumajidovning hayot yo'li, ilmiy-pedagogik faoliyati hamda milliy qonunchilik tizimini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Muallif olimning jinoyat huquqi, kriminalistika va konstitutsiyaviy huquq sohalaridagi fundamental tadqiqotlarini, xususan, jinoyatlarni fosh etish metodikasiga oid ilmiy merosini ochib beradi. Shuningdek, G'.Abdumajidovning tergov va sud amaliyotidagi ko'p yillik tajribasi hamda yosh huquqshunos kadrlar tayyorlashdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: G'afur Abdumajidov, huquqshunoslik maktabi, jinoyat huquqi, kriminalistika, Konstitutsiyaviy sud, ilmiy meros, sud-huquq islohoti.

РОЛЬ АБДУМАЖИДОВА ГАФУРА АБДУМАЖИДОВИЧА С СФЕРЕ ЮРИСПРУДЕНЦИИ

Хакназаровой Гулсанам Зоҳиджоновна

Студент: Ташкентский государственный юридический университет

Факультет уголовного правосудия

Аннотация: В данной статье анализируются жизненный путь, научно-педагогическая деятельность и огромный вклад в развитие национальной законодательной системы яркого представителя юридической школы Узбекистана, профессора Гафура Абдумажидова. Автор раскрывает фундаментальные исследования ученого в области уголовного права, криминалистики и конституционного права, в частности, его научное наследие по методике раскрытия преступлений. Также освещаются многолетний опыт Г. Абдумажидова в следственной и судебной практике, его роль в подготовке молодых юридических кадров.

Ключевые слова: Гафур Абдумажидов, юридическая школа, уголовное право, криминалистика, Конституционный суд, научное наследие, судебно-правовая реформа.

THE ROLE OF ABDUMAJIDOV GAFUR ABDUMAJIDOVICH IN THE JURISPRUDENCE

Haqnazarova Gulsanam Zohidjon qizi

Student: Tashkent State University of Law

Faculty of Criminal Justice

Abstract: This article analyzes the life path, scientific and pedagogical activity, and the immense contribution to the development of the national legislative system of Professor Gafur Abdumajidov, a prominent representative of the legal school of Uzbekistan. The author highlights the scientist's fundamental research in the fields of criminal law, criminalistics, and constitutional law, particularly his scientific heritage on the methodology of crime detection. Furthermore, G. Abdumajidov's long-term experience in investigative and judicial practice, along with his role in training young legal personnel, is elucidated.

Keywords: Gafur Abdumajidov, legal school, criminal law, criminalistics, Constitutional Court, scientific heritage, judicial-legal reform.

Har qanday mustahkam davlatning zamirida adolatli qonunlar va ularni hayotga tatbiq etgan fidoyi insonlar mehnati yotadi. O'zbekiston huquqshunoslik maktabining yorqin namoyandasi G'afur Abdumajidov ana shunday ulkan siymolardan edi. Olim o'zining sermahsul faoliyati davomida jinoyat hamda konstitutsiyaviy huquq sohalarida chuqur izlanishlar olib borib, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtira oldi. Ayniqsa, jinoyatlarni fosh etish metodikasini rivojlantirish hamda qonunlar ijrosini adolatli ta'minlash borasidagi uning ilg'or qarashlari milliy huquq tizimimiz poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu maqolada taniqli olimning ilm-fanga qoldirgan boy merosi va yurtimiz qonunchiligi rivojidadagi beqiyos o'rni haqida so'z yuritimiz.

G'afur Abdumajidovning hayot yo'li boshlangan davr jamiyat uchun juda og'ir va ziddiyatli imtihon yillari edi. Urushdan keyingi davrda siyosiy tuzum qonun ustidan hukmronlik qilar, adolat mezoni esa ko'pincha ma'lum bir guruhlar manfaatiga xizmat qilardi. Mana shunday o'ta murakkab ijtimoiy muhitda ulg'aygan yosh yigitcha qonunlarning quruq so'zlardan iborat emasligini, uning ortida insonlar taqdiri turishini juda barvaqt his qildi. Bu tushuncha keyinchalik uning professional dunyoqarashi va tadqiqotlarining tub mohiyatiga aylandi. Vaholanki, u dastlab butunlay boshqa sohaga — matematika olamiga kirib borgan edi. Biroq bo'lajak huquqshunosning qalbidagi haqiqatga bo'lgan intilishni otasi oldindan ko'ra bildi va uni advokatlik, ya'ni insonlar huquqini himoya qilishdek sharaflil yo'lga yo'naltirdi. Shuning uchun ham olimning shaxsiyati haqida gap ketganda, uning ota-onasi Abdumajid aka hamda Hikoyat ayaning xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Oilada sakkiz nafar farzand voyaga yetgan bo'lsa, G'afur ularning to'ng'ichi edi. Ota-onaning o'zaro mehr-oqibati, halollik va ilmga bo'lgan munosabati barcha farzandlar uchun eng katta tarbiya maktabi bo'ldi. Mana shu xonadonda shakllangan ma'naviy poydevor va olingan olijanob fazilatlar tufayli keyinchalik u xalqiga munosib xizmat qiladigan yetuk arbob darajasiga ko'tarildi.

Toshkent davlat yuridik universitetida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan “Abdumajidov saboqlari” nomli xalqaro anjuman hamda iqtidorli yoshlarga beriladigan maxsus stipendiya bugun bejizga ushbu ulug' olim nomi bilan bog'lanmagan. O'zbekiston yurisprudensiyasi tarixida o'zining yorqin va mazmunli umr yo'li bilan chuqur iz qoldirgan professor G'afur Abdumajidov 2013-yilning 28-mart kuni 84 yoshida foniy dunyoni tark etgan bo'lsa-da, u yaratgan ilmiy maktab hamon yashab kelmoqda. Olimning serqirra izlanishlari qator darslik va monografiyalarda, jumladan, “O'zbekiston davlati va huquq tarixi”, shuningdek, jinoyat huquqiga oid fundamental qo'llanmalarda o'z aksini topgan. 1986-yilda chop etilgan protsessual-huquqiy tadqiqotlarga bag'ishlangan yirik monografiyasi hamda 1991-yilda “Davlat tili to'g'risida”gi qonunga yozgan keng qamrovli sharhlari milliy qonunchiligimizning oltin fondidan joy oldi. Davlatimiz tomonidan olimning ushbu xizmatlari munosib taqdirlanib, u 1987-yilda “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi” degan yuksak unvonga, 1995-yilda esa “Shuhrat” medaliga sazovor bo'lgan edi.

Keling, ushbu buyuk shaxsning hayot sahifalariga biroz nazar tashlaylik. Bo'lajak ustoz 1928-yil 28-avgustda qadimiy Samarqand zaminida, mashhur Sobor masjidi hamda Ulug'bek rasadxonasiga yaqin bo'lgan fayzli bir go'shada dunyoga kelgan. Biroq 1933-yilda yuzaga kelgan mahalliy xavfsizlik muammolari sababli ularning oilasi qadrdon shaharni tark etishga majbur bo'ladi va Toshkentga ko'chib o'tadi. Nihoyatda zehnlil o'sgan G'afur besh yoshidayoq maktab partasiga o'tirdi. O'smirlik yillaridayoq mehnat faoliyatini boshlagan qahramonimiz 1943–1945-yillarda Adliya xalq komissarligi tasarrufidadagi yuridik bilim yurtida o'qish bilan bir qatorda, tuman

sudida kotiblik va ijrochilik vazifalarini ham bajardi. 1948-yilda Toshkent yuridik institutini tamomlagach, tuman prokurorining yordamchisi sifatida mas’uliyatli faoliyatini boshladi. O‘zining qat’iyati va bilimi bilan ajralib turgan yosh mutaxassis 1951-yildan boshlab respublika prokuraturasida o‘ta muhim jinoyat ishlarini tergov qiluvchi mutaxassisga aylandi. Olti yillik faoliyati davomida yuzdan ziyod murakkab ishlarni muvaffaqiyatli yakunlagani uchun Ittifoq Bosh prokurorining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.

Amaliyotda katta tajriba to‘plagan yosh huquqshunos 1957-yilda Leningrad davlat universitetining aspirantura bosqichiga o‘qishga kirib, jinoyatchilikka qarshi kurashning nazariy muammolarini o‘rganishga kirishdi. Uning ilmiy izlanishlari samarasi o‘laroq, 1961-yilda paxtachilik sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishga oid nomzodlik ishini, 1983-yilda esa respublikamizda jinoyatlarni fosh etish nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Professorning ilmiy-pedagogik faoliyati ham juda boy va rang-barang kechgan. U dastlab Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq institutida katta ilmiy xodim va bo‘lim boshlig‘i (1961–1966) bo‘lib ishlagan bo‘lsa, keyinchalik o‘z hayotining qariyb yigirma yilini Ichki ishlar vazirligi Toshkent oliy maktabining Kriminalistika kafedrasini boshqarishga (1974–1991) bag‘ishladi. Mustaqillikning ilk yillarida Ichki ishlar akademiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari lavozimida kadrlar tayyorlashga hissa qo‘shdi. 1995–2000-yillarda esa mamlakat Konstitutsiyaviy sudining sudyasi sifatida davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajardi. Umrining so‘nggi davrlarini Toshkent davlat yuridik institutida professor sifatida o‘tkazib, jinoyat-protsessual huquqi bo‘yicha yuzlab shogirdlarni tarbiyalab yetkazdi.

G‘afur Abdumajidovning qoldirgan merosi faqat nazariy izlanishlar bilan cheklanib qolmay, hayotiy tajriba nuqtai nazaridan ham beqiyos qimmatga ega. U o‘z faoliyati davomida eng chigal va og‘ir jinoyatlarni fosh etishda quruq qonuniy ko‘rsatmalardan tashqari, vijdon amri hamda inson sha‘nini hamisha birinchi o‘ringa qo‘ydi. Har bir huquqiy holatga yuksak insoniylik prizmasi orqali yondashish uning tergovchilik maktabining eng asosiy qoidasi edi.

Olim oliygoh devorlari ichida o‘z shogirdlariga shunchaki ma‘ruzalar o‘qib qolmasdan, ularning qalbida kasbga sadoqat, halollik va yuksak mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirdi. Uning shaxsiy ibrati va ish uslubi ko‘plab yosh mutaxassislar uchun haqiqiy hayot maktabiga aylandi. Bugungi kunda ham mamlakatimiz yurisprudensiya sohasi vakillari o‘z faoliyatida aynan ushbu ustoz g‘oyalari va ish uslublariga tayanib kelmoqda. G‘afur Abdumajidov o‘zining serqirra hayoti bilan milliy huquqshunoslik poydevorini mustahkamlabgina qolmay, kelajak avlodlar uchun hamisha amal qilinishi lozim bo‘lgan olijanob namuna qoldirdi.

Olim hayotidagi burilish nuqtalari va prokuratura tizimidagi ibratli faoliyati G‘afur Abdumajidovning hayot yo‘li va huquqshunoslik kasbini tanlashi o‘ta ta’sirli va adolat tantanasi bilan bog‘liq tarixiy voqeadan boshlangan. 1943-yilda olimning otasi Abdumajid aka Abduazizov (asli g‘ijduvonlik taniqli mo‘ynado‘z usta) harbiy xizmatdan qochish uchun soxta kasallik yaratganlikda asossiz ayblanib, Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti hovlisida uch kun nohaq hibsdan saqlanadi. O‘sha og‘ir damlarda adolatli va beg‘araz advokat Abramovning haqiqatni tiklash yo‘lidagi fidoyiligi 15 yoshli G‘afurjonning qalbida huquqshunoslikka bir umrlik sadoqat uyg‘otadi. Zero, oilada shakllangan yuksak ma‘naviy muhit – to‘ng‘ich farzand G‘afurdan keyingi ukalari Abdushukur (quyosh energiyasi bo‘yicha yirik olim), Abduzukur (filologiya fanlari doktori, professor, Fan arbobi), Omon (tehnika fanlari nomzodi, TATU dekani) hamda singlisi Nazira (tarix fanlari doktori, professor, jurnalistika ustosi) kabi butun bir ziyolilar sulolasining kamol topishiga poydevor bo‘lgan edi.

Ustozlari Zoidbek Inomjonov va institut rektori Soli Rajabovlarning qo'llab-quvvatlashi bilan oliy ma'lumot olgan yosh mutaxassis 20 yoshida Sirdaryo tuman prokurori yordamchisi sifatida ish boshlaydi. Dastlab vokzal yonidagi o'ta og'ir sharoitli, tomi qamishli erto'lada yashab, tuman va viloyat prokurorlari B.Jo'rayev hamda B.Fayziyevlar qo'l ostida murakkab iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qiladi. 1950-yilda Sirdaryoda yuz bergan mafkuraviy tazyiqlar va og'ir bezgak (malyariya) kasalligiga chalinishi oqibatida Ko'kterak tumaniga ishga o'tadi. Keyinchalik Dehqonobodagi o'ta shov-shuvli yirik qotillik va o'g'rilik jinoyatini 3 oyda muvaffaqiyatli yakunlab, Respublika Prokurori I.M. Sadovnikov diqqatini tortadi va bor-yo'g'i 4 nafar a'zodan iborat bo'lgan "o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchilar" guruhining eng yosh a'zosiga aylanadi.

Uning tergovchilik maktabi – hissiyotga berilmaslik, ashaddiy jinoyatchiga berahm, ammo adashganga adolatli bo'lish prinsipiga tayanardi. Buning yorqin isboti sifatida, soxta ayblov bilan o'lim jazosiga (otuvga) mahkum etilgan g'uzorlik begunoh dehqonning ishini qayta ko'rib, haqiqiy qotilni fosh etgani va o'sha davrdagi Respublika prokurori N.S. Yackovskiy orqali protest kiritib, begunoh insonni o'limdan qutqarib qolganini ko'rsatish mumkin. Shuning her, Xo'jayli tumanidagi "Xatop" bazasining sobiq rahbari N.K. Kiriyenko boshchiligidagi tuhmatchilar guruhining 3 yil davomida 80 ga yaqin begunoh odam ustidan Moskvadagi yuqori idoralarga yozgan 200 dan ortiq qalbaki, "yumaloq xat"larini 6 oylik mashaqqatli mehnat evaziga fosh etib, haqiqatni qaror toptirdi.

G'afur Abdumajidov 1960-yilgacha bo'lgan sovet sud-tergov tizimidagi adolatsizliklarni, xususan, dastlabki tergovda advokat (himoyachi) ishtirokining taqiqlanganini, himoyachiga "jinoyatchining maslakdoshi" deb salbiy qaralgan og'ir davrlarni mardona bosib o'tdi. Olim o'z amaliyotida ayblanuvchiga barcha dalillar bilan tanishish uchun 1-2 hafta vaqt berib, sud oldida inson huquqlarini hamisha birinchi o'ringa qo'yardi. Uning shaxsiy kamolotida akademik Xadicha Sulaymonova (Sankt-Peterburgdagi himoyasida shaxsan opponent bo'lgan), Otaboy Eshonov, Malik Hakimov, Tojiddin Jalilov hamda ittifoq miqyosidagi ustozlari V.N. Kudryavcev va M.S. Strogovich kabi yurisprudensiya darg'alarining saboqlari buyuk hayot maktabi bo'lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, G'afur Abdumajidov shunchaki bir davrning olimi emas, balki zamonaviy O'zbekiston yurisprudensiyasi tarixining eng yorqin sahifalarini bitgan buyuk arbobdir. Uning fundamental konstitutsiyaviy g'oyalari hamda jinoyat huquqi sohasidagi amaliy kashfiyotlari bugun ham ilm-fanning tirik poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Ustozning o'z kasbiga bo'lgan cheksiz sadoqati, halollik mezoni va adolat prinsiplari milliy qonunchilik tizimimizning shakllanishida beqiyos ma'naviy poydevorga aylandi. Inson umri faqat yashab o'tilgan yillar bilan emas, balki o'zidan keyin qoldirgan o'chmas izi va izdoshlari bilan o'lchanadi. G'afur Abdumajidovning ilmiy merosi bugun ham so'nganicha yo'q; u adolat yo'lini tanlagan va haqiqat tantanasi uchun kurashayotgan har bir yosh huquqshunosning qalbiga mayoq bo'lib, ularni yangi marralar sari ilhomlantirishda davom etmoqda. Biz faqatgina o'tmishning buyuk olimini emas, balki kelajak avlodlarning ma'naviy ustozini yod etamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://crimcongress.com/abdumadzhidov-gafur-abdumadzhidovich/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBafur_Abdumajidov
3. <https://tsul.uz/en/news/1017/Study/The-international-scientific-practical-conference-Lessons-of-Abdumajidov-will-be-held-at-Tashkent-State-University-of-Law>
4. <https://zenodo.org/records/15399537>
5. <https://zenodo.org/records/19977873>

